

TOSHKENT TO‘QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.T.21.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

TOSHKENT TO‘QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI

UMAROVA GAVXAR ABDURAXIMOVNA

MAVSUMDA TAKRORIY YETISHTIRILGAN PILLALARDAN XOM IPAK
OLISH TEXNOLOGIYASINI TAKOMILASHTIRISH

05.06.02 – To‘qimachilik materiallari texnologiyasi va xomashyoga
dastlabki ishlov berish

TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Toshkent-2026

**Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferatining
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
техническим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on technical
sciences**

Umarova Govxar Abduraximovna

Mavsumda takroriy yetishtirilgan pillalardan xom ipak olish texnologiyasini
takomilashtirish..... 5

Умарова Говхар Абдурахимовна

Совершенствование технологии выработки шелка-сырца из повторно-
выращенных коконов в сезоне..... 23

Umarova Govhar Abdurahimovna

Improving the technology of producing raw silk from re-grown cocoons in the
season..... 43

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of publish works..... 47

TOSHKENT TO‘QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/2025.27.12.T.21.01
RAQAMLI ILMIY KENGASH

TOSHKENT TO‘QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI

UMAROVA GOVXAR ABDURAXIMOVNA

MAVSUMDA TAKRORIY YETISHTIRILGAN PILLALARDAN XOM IPAK
OLISH TEXNOLOGIYASINI TAKOMILASHTIRISH

05.06.02 – To‘qimachilik materiallari texnologiyasi va xomashyoga
dastlabki ishlov berish

TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Toshkent-2026

Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.3.PhD/T5981 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti huzuridagi Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.titli.uz) hamda «Ziyonet» axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Umurzakova Xalima Xabibullayevna
Texnika fanlari falsafa doktori, dotsent

Rasmiy opponentlar:

Qodirova Dilfuza Nematovna
texnika fanlari doktori, professor

Qobulova Nilufar Jalilovna
texnika fanlari nomzodi, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Ipakchilik ilmiy tadqiqot instituti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/2025.27.12.T.21.01 raqamli Ilmiy kengashning 2026 yil «13» mart soat 14⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil:100100, Toshkent sh., Shohjahon ko'chasi, 5.tel.: (+99871) 253-06-06, (+99871) 253-08-08, faks: (+99871) 253-36-17; e-mail: titlp_info@edu.uz, Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti ma'muriy binosi, 2-qavat, 222-xona).

Dissertatsiya bilan Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (279-raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100100, Toshkent sh., Shohjahon-5, tel.: (+99871) 253-06-06, (+99871) 253-08-08.

Dissertatsiya avtoreferati 2026 yil «24» fevral kuni tarqatildi (2026 yil «24» fevral № 279-raqamli reystr bayonnomasi).



X.X. Kamilova
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash raisi, t.f.d., professor

A.Z. Mamatov
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash ilmiy kotibi, t.f.d., professor

Sh.Sh. Xakimov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi
Ilmiy seminar raisi, t.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati. Jahonda hozirgi paytda energiya-resurstejamkor texnologiya va texnika vositalarini qo'llab, tirik pilla yetishtirish bilan juda ko'p mamlakatlar shug'ullanib kelmoqda va yetakchi o'rinlardan birini egallamoqda. Davlatlararo ipak qurtini yetishtirib pilla olish bo'yicha Xitoy, Hindiston, Braziliya, O'zbekiston, Yaponiya, Koreya Respublikasi, Tailand va Vyetnam davlatlari yetakchi o'rinda turadi¹. Ipakchilik bilan shug'ullanuvchi davlatlarda takroriy mavsumlarda yetishtirilgan pillalarning xususiyatlari, sifatli xom ipak ishlab chiqarish uchun ta'sir etuvchi omillarni aniqlash bo'yicha hamda olingan xom ipakdan tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishda yuqori samara beradigan resurstejamkor texnika va texnologiyalarni amaliyotga joriy etishni taqozo etadi. Shu jihatdan xomashyodan unumli foydalanish, xom ipak xususiyatlarini saqlab qolish, yuqori sifatli ipak assortimentlarini kengaytirish uchun chuvilgan xom ipaklarni qayta yig'ib olish jarayonida ishlatiladigan emulsiyani mahalliyashtirish muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Jahonda pillani qayta ishlab xom ipak va ipak mahsulotlarini ishlab chiqarishda yuqori samaradorlikka erishish, zamonaviy texnologiyalarni yangi ilmiy-texnikaviy yechimlarni ishlab chiqarishga yo'naltirilgan ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda ushbu yo'nalishda, jumladan takroriy mavsumda yetishtirilgan pillalardan sifatli xom ipak chuvib olish texnologiyasini takomillashtirish tadqiqotlar olib borilmoqda. Bu borada yurtimizda takroriy yetishtirilgan pillalarga texnologik parametrlarini o'rnatish muhim ahamiyat kasb etadi.

Respublikamizda takroriy mavsumda yetishtirilgan tut ipak qurti pillalarini chuvishga tayyorlash va chuvish jarayonlarini takomillashtirib, ulardan sifatli xom ipak ishlab chiqarish imkonini beradigan resurstejamkor texnika va texnologiyalarni ishlab chiqarish yuzasidan keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilib, muayyan natijalarga erishilmoqda. 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida, jumladan "...ipak mahsulotidan shoyi gazlamalari tayyor mahsulotlari, shuningdek import o'rnini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqarishdagi mavjud bo'shliqlarni to'ldirish orqali 2026 yilga borib sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmlarini oshirish..." bo'yicha muhim vazifalar belgilab berilgan. Ushbu vazifalarni amalga oshirishda, jumladan, takroriy mavsumda yetishtirilgan tut ipak qurti pillalarinidan chuvib olingan kichik charxdagi xom ipakni qayta o'rash texnologiyasini takomillashtirish va ishlab chiqarishga joriy etish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari PF-72-sonli 2024-yil 3 maydagi "Pilla yetishtirish va ipakchilik sohasida bozor mexanizmlarini joriy qilishni jadallashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" Qarori 2019-yil 31 iyuldagi PQ-4411-son "Ipakchilik tarmog'ida chuqur qayta ishlashni rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2020-yil 17 yanvardagi PQ-4567-son "Pillachilik tarmog'ida ipak qurti ozuqa bazasini rivojlantirish bo'yicha

¹ <https://inserco.org/en/statistics>

qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi, 2023-yil 24 fevraldagi “Ipakchilik tarmog‘ini yanada rivojlantirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-73-sonli qarorlari hamda mazkur yo‘nalishdagi barcha meyoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot Respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining II. “Energetika, energiya va resurstejamkorlik” ustuvor yo‘nalishiga mos keladi.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Tadqiqot mavzusi bilan bog‘liq adabiyotlarning sharhi shuni ko‘rsatdiki, pilla yetishtirish, dastlabki ishlov berish, sifatli xom ipak ishlab chiqarish va xom ipak sifatiga ta’sir qiluvchi omillarni o‘rganish bo‘yicha horijda A.Kapil, D.Rajat, Lan Cheng, S.Kumar, Peng Wei, Wang Lijun, Jasjeet Kaur, Rangam Rajkhowa, Shinji Nagata, Li, Jun Sheng, Hai Tao Cheng, S.Gunze, S. Pan, H.Chen, J.Molar shug‘ullanishgan.

Pillani chuvish jarayoni texnologik rejimlarini tadqiq qilish, ulardan xom ipak ishlab chiqarish jarayonini tashkil etish uchun nazariy va amaliy asoslarni yaratish bo‘yicha tadqiqotlarni olib borishgan jumladan: G.K. Kukin, E.B. Rubinov, V.A.Usenko, M.M. Muxammedov, Sh.A. Qodirov, I.Z. Burnashevlar, hozirda, yurtimiz olimlaridan X.A. Alimova, A.E. Gulamov, N.M. Islambekova, J.A.Axmedov, K.R. Avazov, Sh.A. Usmonova, Sh.M., Esanova, N.J. Qobulova va boshqalar tomonidan soha rivojiga o‘z hissalarini qo‘shib kelmoqda.

Lekin, hozirgacha ma’lum bo‘lgan izlanishlarda ipakni standart charxlarga qayta o‘rashda foydalaniladigan emulsiyalarni mahalliyashtirish, yangi tarkib uchun retsept ishlab chiqish, qayta o‘rash jarayonini takomillashtirish, texnologiyani nazariy asoslarini ishlab chiqish va uning sifatini oshirish usullari kabi masalalar yetarli darajada o‘rganilmagan.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat instituti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining OT-F4-14 “Pillani chuvishga tayyorlash va xom ipak ishlab chiqarish texnologik jarayonlarining nazariy asoslarini yaratish” (2017-2020), 92/14 “Tabiiy ipakdan raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish texnologiyalarini takomillashtirish” (2021) mavzularidagi loyihalari doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi takroriy yetishtirilgan pillalardan xom ipak olish ko‘rsatkichlariga ta’sir qiluvchi omillarini tadqiq etish va xom ipakni qayta o‘rash texnologiyani takomillashtirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

ilmiy adabiyotlar va internet manbalari tahlillari asosida xom ipak olishda qo‘llaniladigan emulsiya turlari va ularni ishlab chiqarish holati hamda qayta o‘rash texnologiyalarini tadqiq etish;

Sirdaryo fermer xo‘jaligida 1-mavsumda va 2-takroriy yetishtirilgan “Ipakchi-1xIpakchi-2” va “Xitoy” duragaylari pillarini texnologik xususiyatlarini aniqlash;

1-mavsumda va 2-takroriy yetishtirilgan pillalarni pishirishda va chuvishda adgeziya kuchini kamayishini xom ipakni charxga yopishishiga ta’sirini tadqiq qilish;

yangi tarkibli emulsiya namunalarini olish, ularni xom ipakning fizik-mexanik xususiyatlariga ta'sirini tadqiq etish va amaliyotda qo'llash mumkinligi uchun tavsiyalar olish;

1-mavsumda va 2-takroriy yetishtirilgan pillalardan olingan xom ipakni texnologik ko'rsatkichlariga emulsiya va uning konsentratsiyasi ta'sirini nazariy tadqiq etish.

Tadqiqotning ob'yekti sifatida 1-mavsumda va 2-takroriy yetishtirilgan pillalardan chuvilgan xom ipakni standart charxlarga o'rash olingan.

Tadqiqotning predmeti 1-mavsumda va 2-takroriy yetishtirilgan "Ipakchi-1xIpakchi-2" va "Xitoy" duragayi pillalarini chuvish, xom ipak olish va qayta o'rash jarayonida sifat ko'rsatkichlarini aniqlashdagi uslub va vositalar hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida iplar mexanikasi, xom ipaklarni sifatini, qayta o'rashdagi tajriba analizi va matematik statistika, dasturiy ta'minot, xom ipakning sifat ko'rsatkichlarini aniqlash uslublaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

pillalarni bug'lash va chuvish jarayonida xom ipak yopishganligiga ta'siri omillarini tahlili asosida pishirish uchun ratsional texnologik parametrlar ishlab chiqilgan;

pilla tarkibidagi seritsinni bo'kish va erish haroratini standart charxga o'rashda emulsiya tarkibini xom ipak uzilishlarini kamayishiga ta'sirini ratsional qiymatlari aniqlangan;

mahalliy xomashyolardan foydalanib xom ipakni qayta o'rash qobiliyatini yaxshilovchi yangi tarkibli emulsiya retsepti ishlab chiqilgan;

takroriy yetishtirilgan pillalarni qobiq xususiyati tahlili asosida sifatli 3A" naviga mos xom ipak olishni texnologik parametrlari ishlab chiqilgan va yangi tarkibli emulsiyani qo'llash orqali texnologik jarayon takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

1-mavsumda va 2-takroriy yetishtirilgan "Ipakchi-1xIpakchi-2" va "Xitoy" duragayi pillalarining qobiq xususiyatlari tadqiq etilgan va ulardan chuvib olingan xom ipakning fizik-mexanik xususiyatlari aniqlangan;

1-mavsumda va 2-takroriy yetishtirilgan tut ipak qurtining "Ipakchi-1xIpakchi-2" va "Xitoy" duragayi pillalaridan xom ipak ishlab chiqarish jarayonida sifatga ta'sir etuvchi omillar asoslangan;

1-mavsumda va 2-takroriy yetishtirilgan pillalaridan "3A" sinfiga mos sifatli xom ipak olishda qayta o'rash jarayonida ishlatiladigan mahalliyashtirishgan emulsiya nazariy hamda amaliy asoslanib, ishlab chiqarish korxonalariga joriy qilingan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi, katta hajmdagi tajriba materiallarining statistikasi, o'tkazilgan tajriba natijalarining keyingi tajriba natijalariga mos kelishi, xom ipaklarni qayta o'rashning nazariy va amaliy modellarning o'zaro yaqinliklari hamda zamonaviy metodlarni qo'llanilishi bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati 1-mavsumda va 2-takroriy yetishtirilgan pillalarni chuvish va xom

ipakni qayta o‘rash jarayonini takomillashtirish orqali 3A sinfiga mos xom ipak chuvib olingan hamda yangi tarkibli emulsiya ishlab chiqilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati Sirdaryo viloyatida yetishtirilgan mavsumda takroriy pillalaridan 3A sinfiga mos xom ipak chuvib olingandan so‘ng, standart charxga qayta o‘rash jarayonida ishlatiladigan emulsiyani retsepti taklif etilgan va ishlab chiqarishga joriy etilib, takroriy mavsum pillalaridan samarali foydalanishni ta‘minlanganligi, energiya sarfini kamaytirgan holda korxonada samardorligini oshirilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Tut ipak qurtini 1-mavsumda va 2-takroriy yetishtirilgan pillalarini chuvish texnologiyasini takomillashtirish bo‘yicha olingan natijalar asosida:

tavsiya etilgan takomillashtirilgan texnologiya “O‘zbekipaksanoat” uyushmasi tasarrufidagi korxonalarida, jumladan, Andijon viloyatining Jalaquduq tumanidagi “XARIR TOLA” MCHJ, Farg‘ona viloyatining Marg‘ilon shahridagi “NURLI TONG SILK” MCHJ va Toshkent viloyatining Oxangaron tumanidagi “JINJUZ SILK Co” MCHJ korxonalarida joriy qilingan (“O‘zbekipaksanoat” uyushmasining 2025 yil 23 sentabrdagi 4-211693-sonli ma‘lumotnomasi). Natijada, takroriy mavsumlarda yetishtirilgan Ipakchi-1 x Ipakchi-2 duragayi pillalaridan xom ipakni standart charxga qayta o‘rashda foydalaniladigan emulsiya tarkibi mahalliyashtirilgan, emulsiyada ishlov berish vaqti va qayta o‘rash tezligi rejimlari o‘rnatilgan hamda 3A sinfiga mos sifatli xom ipak ishlab chiqarishga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 4 ta xalqaro va 2 ta respublika miqyosidagi ilmiy-texnik va ilmiy-amaliy anjumanlarda aprobatsiyadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 18 ta ilmiy ishlar chop etilgan bo‘lib, shulardan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 8 ta maqola nashr etilgan, shundan 1 ta maqola Scopus bazasida indeksatsiya qilingan jurnalda chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, 3 ta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati hamda ilovalardan iborat. Dissertatsiya hajmi 120 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqot maqsad va vazifalari belgilangan, uning obyeksi va predmetini shakllantiradi, tadqiqotning respublika fan va texnikasini rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga muvofiqligini ko‘rsatadi, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalarini bayon qiladi, olingan natijalarning ishonchliligini asoslaydi, nazariy ochib beradi va olingan natijalarning amaliy ahamiyati, tadqiqot natijalarini amalda tatbiq etish, nashr etilgan maqolalar va dissertatsiya tuzilishi haqida ma‘lumotlar berilgan.


Dissertatsiyaning “**Ipakchilikning rivojlanish holati tahlili**” deb nomlangan birinchi bobida adabiyot manbaalarining tahlili yoritilgan bo‘lib, unda respublikamizda pilla yetishtirish va xom ipak ishlab chiqarishning hozirgi davrdagi holati,

to‘qimachilik sanoatida ipakchilik tarmog‘ining tutgan o‘rni, tut ipak qurtining yangi yaratilgan mahalliy duragay pillalari va xom ipak sifatga ta’sir etuvchi omillar, yuqori sifatli xom ipak ishlab chiqarishda pilla xom ashyolaridan samarali foydalanish, xom ipakni yumshatish va qayta o‘rashda ishlatiladigan emulsiyalar tarkiblari turlari ustida olib borilgan ilmiy tadqiqotlarni tahlili kabi masalalarga e’tibor qaratilgan. Ilmiy manbalarni tahlil qilish asosida tadqiqotning maqsad va vazifalari aniqlandi.

Dissertatsiya ishining **“Mavsumda takroriy yetishtirilgan pillalardan sifatli xom ipak olish texnologiyasi rejimlarini ishlab chiqish”** deb nomlangan ikkinchi bobida 1-mavsumda va 2-takroriy yetishtirilgan pillarni texnologik xususiyatlari, pillarni yakka chuvish natijalari, pillalarini chuvish uchun optimal rejimlarni ishlab chiqish va asoslash masalalari bo‘yicha tadqiqot uslub va vositalari keltirilgan.

Tadqiqot ishida Sirdaryo viloyatida yetishtirilgan “Ipakchi-1 x Ipakchi-2” va mahalliy sharoitda yetishtirilgan “Xitoy” duragaylari pillalaridan foydalanildi. Ular birinchi mavsum va ikkinchi takroriy yetishtirilgan bo‘lib, ushbu duragaylarni olishda tut ipak qurtining zotlari, pilla iplarining chiziqli zichligi, pilla ipining umumiy uzunligi kabi ko‘rsatkichlari o‘rganildi. Pillalarni chuvishga tayyorlash va chuvish ishlarini olib borishda pillalar qobig‘ining texnologik xususiyatlari muhim ahamiyatga ega. Shu sababdan tadqiqot uchun birinchi mavsum va ikkinchi takroriy yetishtirilgan mahalliy “Ipakchi-1 x Ipakchi-2” duragaylari pillalarini texnologik xususiyatlari o‘rganildi.

Pilla chuvish jarayonida pillalarni shakli juda muhim ahamiyatga ega. Chunki pilladan chiqayotgan ip qanchalik bir tekis chiqsa, ipda uzilishlar soni va ip yo‘g‘onligidagi notekisliklar kam buladi. Shu sababli pillalarni geometrik o‘lchamlari o‘rganildi. “Ipak va yigirish texnologiyasi” kafedra laboratoriyasida xar yili Ipakchilik ilmiy tadqiqot institutidan inkubatsiyadan ochirilgan ipak qurtini mahalliy duragaylari olib kelinib, professor-o‘qituvchilar va talabalar bilan birgalikda boqiladi. Kafedra va xo‘jalikda yetishtirilgan pillalar shakllari o‘rganilganda deyarli bir biriga yaqin bo‘ldi, ya’ni pillalarimizni shakli oval shakllilarga to‘g‘ri keldi (1-rasm).



1-rasm. Ipakchi-1 x Ipakchi-2 va Xitoy duragayi pillalarini o‘rtacha geometrik o‘lchamlari

Pilla qobig‘ining quvvati deganda, qobiqning (M) ma’lum yuzasi (f) ga to‘g‘ri keladigan pilla qobig‘ining og‘irligi (m_q) tushuniladi va u quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$M = \frac{m_q}{f} \text{ g } \text{ mg/mm}^2 \quad (1)$$

Tut ipak qurti pillalari qobig'ining ham xususyatiga e'tibor qaratiladi. Pilla qobig'ining turli qismlarida qobiq quvvati uning qalinligi turli xil bo'ladi. Pillalar qobiq quvvatining eng katta qiymati bel qismiga to'g'ri kelsa, o'rta qiymatlari yuqori va pastki yarim sharlarning o'rta qismlariga to'g'ri keladi, kichik qiymatlari esa qobiqlar yarim sharlarining qutb qismlarida bo'ladi.


1-jadval

1-mavsumda va 2-takroriy mavsumda yetishtirilgan pilla qobig'i qismlarining quvvatini tahlili

Duragay	Pilla qobig'ining quvvati, mg/mm^2					Jami o'rtacha
	bosh yarim shari		bel qismi	tag yarim shari		
	qutb qismi	yarim shari		qutb qismi	yarim shari	
“Ipakchi-1xIpakchi-2” (1- mavsum)	0,292	0,275	0,319	0,313	0,276	0,294
“Ipakchi-1xIpakchi-2” (2-takroriy)	0,288	0,252	0,313	0,309	0,254	0,283
“Xitoy” (1- mavsum)	0,298	0,258	0,319	0,316	0,247	0,288
“Xitoy” (2- takroriy)	0,292	0,244	0,312	0,311	0,243	0,280

2-jadval ko'rsatkichlaridan ko'rishimiz mumkimki, “Ipakchi-1xIpakchi-2” 1-mavsum duragayi pillalari qobig'ining o'rtacha quvvati bo'yicha eng yuqori bo'ldi, 2-takroriy etishtirilgan 3,74 % ga ya'ni deyarli ikki barobarga pastlab ketganligi aniqlandi.

UzNIISHP sistemasidagi yakka chuvish dastgohi orqali birinchi mavsum va ikkinchi takroriy hosildorlik davrida yetishtirilgan “Ipakchi-1 x Ipakchi-2” va “Xitoy” duragaylari pillalari chuvib olingan. Ularning kalavachalari har yigirma besh metr bo'lganda fizik-mexanik parametrlari taqqoslanib o'rganilgan. 1-mavsumda va 2-takroriyda boqilgan Ipakchi-1 x Ipakchi-2” va “Xitoy” duragaylari pillalari iplari chiziqli zichliklarini uning jami uzunligi yuzasidan o'zgarishi grafiklari 2-rasmda ko'rsatilgan. Olib borilgan sinov tahlillari davomida har bir duragay pillardan 100 donadan olib o'ralgan iplarini chiziqli zichliklari va jami uzunligi yuzasidan o'zgarishini aniqlash uchun pillalar donalab chuvib olindi. 50 m dan kalavachalarga chuvilgan iplar olindi. O'rtacha qiymatni aniqlash uchun olingan kalavachalar kvadrant tarozida tortilib o'lchandi.



2-rasm “Ipakchi-1 x Ipakchi-2” va “Xitoy” duragaylari pilla iplari chiziqli zichliklarini umumiy uzunliklari bo'yicha o'zgarishi

“Ipakchi-1xIpakchi-2” va “Xitoy” duragayi quruq pillalarini yakka chuvishdan olingan natijalari 2-jadvalda keltirilgan.

1-mavsumda va 2-takroriy yetishtirilgan “Ipakchi-1xIpakchi-2” va “Xitoy” duragayi quruq pillalarini yakka chuvishdan olingan natijalari

№	Ko‘rsatkichlar	Ipakchi-1x Ipakchi-2 1-mavsum	Ipakchi 1x Ipakchi-2 2-takroriy	Xitoy duragayi 1-mavsum	Xitoy duragayi 2-takroriy
1	Pilladan xom ipak chiqishi, %	43,25±0,29	40,68±0,2	43,28±0,27	40,78±0,2
2	Pilla losi, %	3,6±0,20	3,8±0,20	3,67±0,21	3,7±0,20
3	Qaznoq po‘sti (plenka), %	3,4±0,37	3,8±0,33	3,25±0,31	3,9±0,33
4	G‘umbak, %	47,15±0,51	48,1±0,57	47,10±0,51	49,1±0,57
5	Ipakdorligi, %	51,25±0,21	50,0±0,21	51,20±0,21	50,8±0,21
6	Chuviluvchanligi, %	86,06±0,31	84,36±0,56	86,20±0,31	83,36±0,56
7	Pilla ipini umumiy uzunligi, m	1288±20	1070±20	1295±20	1050±20
8	Uzluksiz chuvalish uzunligi, m	955±5	780±5	950±5	790±5
9	Pilla ipini chiziqli zichligi, tex	0,254±0,004	0,330±0,004	0,252±0,003	0,329±0,004

2-jadvaldagi natijalar shuni ko‘rsatadiki, “Ipakchi-1xIpakchi-2” duragayida pilla ipining umumiy uzunligi 1288 m ni, pilla ipining uzluksiz chuvaluvchanlik uzunligi 955 m ni, pilla ipining chiziqli zichligi 0,254 tex ni “Xitoy” duragayida esa pilla ipining umumiy uzunligi 1295 m ni, pilla ipining uzluksiz chuvaluvchanlik uzunligi 950 m ni, pilla ipining chiziqli zichligi 0,252 tex ni hamda 2-takroriyda yetishtirilgan “Ipakchi-1xIpakchi-2” pilla ipining umumiy uzunligi 1070 m ni, pilla ipining uzluksiz chuvaluvchanlik uzunligi 780 m ni, pilla ipining chiziqli zichligi 0,330 tex ni, 2-takroriyda yetishtirilgan “Xitoy” duragayida esa pilla ipining umumiy uzunligi 1050 m ni, pilla ipining uzluksiz chuvaluvchanlik uzunligi 790 m ni, pilla ipining chiziqli zichligi 0,329 tex ni tashkil qilgan.

Bizga ma’lumki, pillalar iplari paketlarda uzunasi bo‘ylab sakkizsimon halqa ko‘rinishida pilla qobig‘iga yelimgan. Pillalarni chuvish jarayoni pilla ipini qobiqdan seritsinni adgeziya kuchidan yuqoriroq bo‘lgan kuch bilan tortib ajratib olish hisoblanadi. Pillalar iplari sakkizsimon xalqalar ko‘rinishida paketlarga joylashgan va uzunasi bo‘ylab iplarning o‘zaro bir-birlaiga tegib turish nuqtalarida yopishgan holda joylashgan bo‘ladi. Shu sababdan olinayotgan xom ipak sifatiga qobiq seritsinini yumshatilishi, chuvish tezligi, chirmovlash o‘lchami hamda chuvilayotgan ip tarangligining ta’siri katta hisoblanadi.


Pilladan ipni tortib olish uchun 8-10 cN ga teng bo‘lgan kuch bilan tortib olinadi. Bu kuch ipni qobiqqa yopishib turgan kuchidan 5-6 barobar katta hisoblanadi. Shu sababdan pillalarni chuvish jarayonidan oldin qobiq seritsinini yumshatish va ipni qobiqqa yopishib turgan adgeziya kuchini kamaytirish lozim bo‘ladi. Adgeziya kuchi pilla ipini qobiqdan tortib olishda ipni qobiqdan chiqish nuqtalarida mavjud bo‘lib,

uning qiymati ipni qobiqqa yelimlanish darajasiga teng bo‘lib yo‘nalishi bo‘yicha teskari tomonga qarab yo‘nalgan bo‘ladi.


Olingan nazariy tadqiqotlar asosida va “Ipak va yigirish texnologiyasi” kafedrasida laboratoriyasida o‘rganilgan pillalarni qobiq xususiyatlari va yakka chuvish hamda pillalarni chuvishga tayyorlash bo‘yicha olib borilgan tajribalar tahlili asosida bevosita ipakchilik korxonalarida ishlab chiqarish sharoitida amaliyotga joriy etildi.

Qobiqdan ipning chiqish kuchi statik va dinamik turlarga bo‘linadi. Statik chiqish kuchi ipni qobiqdan ushlab turadigan kuchdan yuqori bo‘lib, uni qobiqdan tortib olishda kerak bo‘ladigan kuch hisoblanadi. Dinamik chiqish kuchi bu ipni qobiqdan tortib olish va chuvish vaqtida ip tomonidan seziladigan kuchdir.

Pillani suvli muhitda cho‘kishining boshlang‘ich cho‘kishi h_0 ning ikkala qiymati o‘xshash grafiklari 3-4-rasmda keltirilgan. Ko‘rinib turibiki, pillaning cho‘kish chuqurligi oshishi pilla tebranishlar amplitudasini qamrovi oshishiga olib keladi.




3-rasm. Ipni tortishning kuchi F (cN) ning ikkala qiymatini pillani suvli muhitda uning cho‘kish chuqurligiga vaqt $t(sek)$ bo‘yicha bog‘liqligi



4-rasm. Pillarni suvli muhitda vaqt $t(sek)$ bo‘yicha cho‘kish chuqurligi $h(m)$ ni boshlang‘ich cho‘kish chuqurligi $h_0(m)$ ikkala qiymatlariga bog‘liqligi

Grafiklar tahlillaridan ko‘rinib turibdiki, pillani suvli muhitdan ko‘tarilish vaqtida tebranma harakatga ega. Ipni tortishish kuchini ortishi chastotani ko‘payishiga (oshishiga) olib keladi va tebranishlar amplitudasiga deyarli ta’sir qilmaydi.



5-rasm. Tajriba variantida pilla ipi yopishqoqlik kuchlarini uzunligi bo‘yicha o‘zgarishi

Grafiklardan ko‘rinib turibdiki, tajriba variantida bug‘langan birinchi mavsum va ikkinchi takroriyda yetishtirilgan mahalliy “Ipakchi-1xIpakchi-2” va “Xitoy” duragaylari pillalari iplarini qobiq qatlamlari bo‘yicha yopishqoqlik kuchlari 100 m dan 1200 m bo‘lgan oraliqda yuqori yopishqoqlikga ega bo‘lib, pilla ipining 600 m da o‘zining maksimum qiymatga erishgan. Pillalar iplaring uzunliklari 1200 m dan oshgandan keyin ipni pilladan ajratib olish kuchi anchagini pasayib ketgan.

FY-2008 pilla chuvish avtomatining texnologik ko‘rsatkichlari 3-jadvalda keltirilgan.

**3-jadval
FY-2008 pilla chuvish avtomatining texnologik ko‘rsatkichlari**

Ko‘rsatkich nomi	Nazorat	Tajriba
Chuvish tozi harorati (°C)	30-35	30-35
Quritish shkafining harorati (°C)	40-45	40-45
Chirmov uzunligi (mm)	40-70	40-70
Ip chirmovdan chiqish burchagi (°)	75-80	75-80
Chuvish tezligi (m/min)	120	130
Dasta tagidagi pillalar soni, dona 3,23 tex	9-10	9-10

Tajribalar davomida FY-2008 pilla chuvish avtomatida pillalarni ratsional chuvish tezligi quyidagi formula yordamida hisoblandi:

$$v = \frac{N l_H T_{KH}}{T_{zad} m} K \quad (2)$$

bu yerda, N -bitta tozga minutiga pilla tashlash meyori (2,33 *tex* li xom ipak uchun $N=30$; 3,23 *tex* li xom ipak uchun $N=36$ ta pilla)

l_H -pilla ipini uzluksiz chuvaluvchan uzunligi, m

T_{KH} -partiyadagi pillalarning o‘rtacha chiziqli zichligi, *tex*

T_{zad} – olinadigan xom ipakning berilgan o‘rtacha chiziqli zichligi, *tex*

m - chuvish tozidagi ilgichlar soni-20 ta

K -sirpanish (0,95) va iplar uzilishidagi to‘xtashlar sababli (0,9) tezlikni yo‘qotilishi koeffitsiyenti, $K = 0,95 \cdot 0,9 = 0,855$.

4-jadvalda 1-mavsumda va 2-takroriy yetishtirilgan “Ipakchi-1xIpakchi-2” va “Xitoy” duragayi pillalaridan chuvib olingan xom ipak miqdori to‘g‘risida ma’lumotlar keltirilgan.

4- jadval

1-mavsumda, 2-takroriy yetishtirilgan “Ipakchi-1xIpakchi-2” va “Xitoy” duragayi pillalaridan olingan xom ipak miqdori to‘g‘risida ma’lumot

Duragay nomi	“3A”				“2A”			
	Chuvilgan pilla (kg)	Xom ipak (kg)	Xom ipak chiqishi (%)	Pilla solishtirma sarfi	Chuvilgan pilla (kg)	Xom ipak (kg)	Xom ipak chiqishi (%)	Pilla solishtirma sarfi
“Ipakchi-1xIpakchi-2” (1-mavsum)	30,0	11,07	36,9	2,71	30,0	10,67	35,5	2,81
“Ipakchi-1xIpakchi-2” (2-takroriy)	30,0	10,30	34,3	2,91	30,0	10,06	33,5	2,98
“Xitoy” (1-mavsum)	30,0	11,11	37,0	2,70	30,0	10,71	34,7	2,80
“Xitoy” (2-takroriy)	30,0	10,34	34,4	2,90	30,0	10,13	33,7	2,96

Korxonada o‘rnatilgan rejimlar asosida nazorat variantida tayyorlangan namunalardagi pillalar chuvilganda “Ipakchi-1xIpakchi-2” duragayi pillalarida torsimon los chiqishi miqdori 5,6% ni, qaznoq chiqishi miqdori 5,1% ni, g‘umbak chiqishi miqdori 27,4% ni, “Xitoy” duragayi pillalarida esa torsimon los chiqishi miqdori 5,5% ni, qaznoq chiqishi miqdori 4,8% ni, g‘umbak chiqishi miqdori 27,3% ga teng bo‘ldi.

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, tajribalarda bir xil miqdorda 30,0 *kg* dan pillalar ishlatilgan. Standart talablari bo‘yicha “3A” sinfiga mos xom ipak olish uchun o‘tkazilgan tajribalarda mahalliy sharoyitda 1-mavsumda yetishtirilgan “Ipakchi-

1xIpakchi-2” va “Xitoy” duragayi pillalaridan olingan xom ipak miqdori 11,07 kg va 11,11 kg ni, xom ipak chiqishi 36,9% va 37,0% ni, pillaning solishtirma sarfi 2,71 va 2,70 ni tashkil etdi. Mahalliy sharoyitda 2-takroriy yetishtirilgan “Ipakchi-1xIpakchi-2” va “Xitoy” duragayi pillalaridan olingan xom ipak miqdori 10,30 kg va 10,34 kg ni, xom ipak chiqishi 34,3% va 34,4% ni, pillaning solishtirma sarfi har ikkala duragayda 2,91 va 2,90 ni tashkil qilib standart talablari bo‘yicha “2A” sinfiga mos bo‘ldi.

Dissertatsiya ishining **“Mavsumda takroriy yetishtirilgan pillalardan chuvilgan xom ipakni qayta ishlash texnologiyasini takomilashtirish”** deb nomlangan uchinchi bobida qayta o‘rash jarayonida ishlatiladigan emulsiya tarkibini tayyorlash va texnologik parametrlarni ishlab chiqish, xom ipakni standart charxga qayta o‘rashda emulsiya konsentratsiyasining ip mustahkamligiga ta’sirini regression modelini qurish, emulsiya konsentratsiyasini xom ipak sifatiga ta’siri keltirilgan.

Bizga ma’lumki, pillani yetishtirish jarayonida uning xususiyatlariga turli omillar ta’sir ko‘rsatadi masalan: ob-havo, berilayotgan ozuqa, xona harorati va hokazo. Bundan tashqari har xil viloyatdagi yoki tumandagi yetishtirilgan pilla xususiyati ham turlicha bo‘ladi. Shu narsalarni inobatga olgan holda, korxonada chiqarilayotgan xom ipakni sifati, qayta o‘ralish qobiliyati chuqur o‘rganilib, emulsiya tarkibini o‘zgartirish uchun har xil variantlarda emulsiya namunalari tayyorlandi va birinchi navbatda laboratoriya sharoitida sinab ko‘rildi.

Korxonada mavjud FY-118 mini xom ipakni qayta o‘rash dastgohida bajarildi. Qayta o‘rash dastgohi bir tomonli bo‘lib, bir seksiyadagi har bir charxda 5 ta kalava o‘raladi. Xom ipak perimetri $p=0,65$ metrli charxdan $p=1,5$ metrli charxga o‘raladi. 2,33 teks uchun qayta o‘ralish tezligi $V=160-180$ m/min. Dastgohning texnik tavsifi 5-jadvalda keltirilgan.

5-jadval


Qayta o‘rash dastgohining texnik tavsifi

Umumiy o‘lchamlari, mm	1350x1225x1550
Charx perimetri, m	1,5
Charx kengligi, mm	65-90
Charxning aylanish tezligi, min^{-1}	130-150
Quritish shkafining temperaturasi, °C Yozda	30-35
Qishda	38-50
O‘ralayotgan ipning tarangligi, sN	1-2
Yuritmaning kuchlanishi, v	220
Nisbiy namligi, %	5-95

Quyida keltirilgan jadvallarda mahalliy xomashyolardan tuli konsentratsiyali sovun, soda, yog‘ moddalaridan foydalanib, emulsiya variantlari tayyorlandi va ularning xom ipakning qayta o‘rash jarayonidagi asosiy ko‘rsatkichlaridan bo‘lgan uzilishlar soniga ta’siri tadqiq qilindi. Quyida 6-jadvalda turli xil variantdagi emulsiyalar tarkibi keltirilgan.


Turli xil variantdagi emulsiya tarkibi

Variantlar	Ishlatiladigan xomashyo			
1-variant	30 litr suv	soda (kalsiylangan) 0,25gr	(xo'jalik sovuni) 65%lidan 30gr	Tayyor emulsiyani harorati 42°C
2-variant	30 litr suv	xo'jalik sovuni 60%li 25gr, soda (kalsiylangan) 0,20gr	glitserin 3,5gr	Tayyor emulsiyani harorati 40°C
3-variant	30 litr suv	xo'jalik sovuni 60%li 20gr, soda (kalsiylangan) 0,20gr	kunga boqar moyi 2,5gr	Tayyor emulsiyani harorati 40°C
4-variant	30 litr suv	xo'jalik sovuni 70%li 20gr	soda (kalsiylangan) 0,30 gr	Tayyor emulsiyani harorati 43°C
5-variant	30 litr suv	xo'jalik sovuni)70%li 20gr	soda 15gr; glitserin 3,5gr	Tayyor emulsiyani harorati 45°C



6-rasm. Emulsiya tarkibida qo'llanilgan sovunning uzilishlar soniga bog'liqligi

Xom ipakni kichik perimetrli charxlardan standart kalavalarga qayta o'rash uchun tavsiya etilayotgan emulsiyaning haroratlari ham tadqiq qilindi. Turli haroratlarda, ya'ni 35, 40, 45, 50 va 55°C emulsiyalar tayyorlandi va uzilishlar soniga ta'siri o'rganildi. Xom ipakni qayta o'rashdagi uzilishlar soniga turli haroratdagi emulsiyaning ta'siridan olingan natijalari 7-rasmda keltirilgan.



7-rasm. Emulsiya haroratining xom ipakning uzilishlar soniga bog'liqligi

Tajribalarni o'tkazishda mashinani ishga tushirish paytidagi Y_1 - Uzish kuchi va Y_2 - Jipslik karetkasi bo'yicha chiqish parametri sifatida qabul qilindi.

7-jadval

Omillarning o'zgarish sathlari

Omillar		O'zgarish sathlari			O'zgartirish oralig'i
Nomi	Kodlari	-1	0	1	
Sovun miqdori	x_1	10	25	40	15
Soda miqdori	x_2	2	17	32	15
Ishlov berish vaqti	x_3	1	3	5	2

8-jadval

Tajriba rejasi

T/r	Kiruvchi faktorlar			Uzish kuchi, cN \bar{Y}_{u1}	$S^2\{y_{u1}\}$, dispersiya	Jipslik \bar{Y}_{u2}	$S^2\{y_{u2}\}$, dispersiya
U	X_1	X_2	X_3				
1	+	+	-	93,803	0,406	57,667	0,556
2	0	+	+	104,420	1,158	67,333	0,556
3	-	+	0	108,637	0,383	74,333	0,222
4	+	0	0	112,843	1,081	88,000	1,000
5	0	0	-	117,987	0,585	95,000	1,000
6	-	0	+	122,217	0,721	104,333	0,556
7	+	-	+	124,600	0,200	110,000	1,000
8	0	-	0	135,133	0,766	115,667	0,222
9	-	-	-	137,033	0,556	122,000	2,000
					$\Sigma=0,605$		$\Sigma=18,693$

Tajribalar ikki takrorlikda o'tkazilishidan avval tasodifiy sonlar jadvalidan foydalanib, randomizasiya qilindi va ular bo'yicha o'tkazildi. Olingan natijalar 8-jadvalda ko'rsatilgandek ishlov berilib jamlandi.

Model ikkinchi tartibli ko'phad shakliga ega:

$$y = b_0 + \sum_{i=1}^N b_i x_i + \sum_{ij=1}^N b_{ij} x_i x_j + \sum_{i=1}^N b_{ii} x_i^2 \quad (3)$$

bu yerda, b_0 , b_i , b_{ij} – model koeffitsiyentlari;

N – tajribalar soni;

x_i , x_j – omillar.

Tenglama koeffitsiyentlari quyidagi formulalar bo'yicha aniqlanadi:

$$b_0 = q_1 \cdot \sum_{i=1}^N \bar{y}_i \quad (4)$$

$$b_i = q_2 \cdot \sum_{i=1}^N x_i x_j \bar{y} \quad (5)$$

$$b_{ii} = q_n \cdot \sum_{i=1}^N x_i^2 \cdot \bar{y}_i - q_i \sum_{i=1}^N \bar{y}_i \quad (6)$$

Ahamiyatsiz koeffitsiyentlar tashlab yuborilgandan so‘ng regressiya tenglama quyidagi ko‘rinishga ega bo‘ladi:

1. Uzish kuchi bo‘yicha olingan regressiya tenglamasi

$$y_1 = 117,396 - 6,104x_1 + 14,978x_2 + 0,402x_3 - 0,600x_1x_2 + 11,403x_1x_3 + 5,762x_2x_3 - 0,920x_1^2 - 0,766x_3^2$$

2. Jipslik, karetkani yurish soni bo‘yicha olingan regressiya tenglamasi

$$y_2 = 92,694 - 7,497x_1 - 24,712x_2 + 1,1662x_3 - 1,1667x_1x_2 - 17,500x_1x_3 - 5,416x_2x_3 - 1,5642x_2^2$$


Yuqoridagi tenglamalarni adekvatliligini (moslik) baholash uchun F– Fisher me‘zoni yordamida baholandi, ya’ni

$$F = s_{agi}^2 / s_{yi}^2,$$

bu yerda s_{agi}^2 - adekvatlik dispersiyasi (6) formula bo‘yicha hisoblanadi.

1. Uzish kuchi bo‘yicha olingan regressiya tenglamasi

$$y_R(x_1; x_2) = 117,396 - 6,104 \cdot x_1 + 14,978 \cdot x_2 + 0,402 \cdot x_3 - 0,600 \cdot x_1 \cdot x_2 + 11,403 \cdot x_1 \cdot x_3 + 5,762 \cdot x_2 \cdot x_3 - 0,920 \cdot x_1^2 - 0,766 \cdot x_3^2$$



8-rasm. Sovun va soda konsentrasiyasining xom ipakning uzilish kuchiga ta’siri

1. Sovun miqdorining $x_1 = -1 \div -0,75$ gacha o‘zgarishi soda miqdorining $x_2 = 0,8 \div 1$ gacha o‘zgarishi hisobiga uzilish kuchi oshishini ko‘rishimiz mumkin. Bunda ishlov berish vaqtini $x_3 = 0$ qiymatida erishadi.
2. 1-mavsumda yetishtirilgan mahalliy “Ipakchi-1xIpakchi-2” va “Xitoy” duragaylari pillalaridan “3A” sinfiga va ikkinchi takroriy mahalliy sharoyitda yetishtirilgan “Ipakchi-1xIpakchi-2” va “Xitoy” duragaylari pillalaridan “2A” sinfiga mos xom ipak olish uchun o‘tkazilgan tajriba variantida ishlab chiqarilgan xom ipakning sifat ko‘rsatkichlari 9-jadvalda keltirilgan. Jadvalda ushbu rejimda nazorat variantida olingan xom ipak sifat ko‘rsatkichlari solishtirish uchun keltirilgan.

**“Ipakchi-1xIpakchi-2” va “Xitoy” duragaylari pillalaridan nazorat
va tajriba variantlarida ishlab chiqarilgan xom ipak sifat ko‘rsatkichlari**

Ko‘rsatkichlar	O‘zDSt 3313:2018	“Ipakchi-1 x Ipakchi-2”	“Xitoy”	“Ipakchi-1 x Ipakchi-2”	“Xitoy”
		1-mavsum		2-takroriy	
		3A		2A	
Chiziqli zichlik, <i>tex</i>	3,23	3,23	3,23	3,23	3,23
Chiziqli zichlik bo‘yicha og‘ish (<i>tex</i>)	0,18	0,16	0,15	0,19	0,21
Notekislik 1	170	170	145	180	185
Notekislik 2	17	16	13	25	24
Yirik nuqsonlardan tozaligi % hisobida kam.	95	96	95	93	94
Mayda nuqsonlardan tozaligi % hisobida kam.	92	92	92	91	90
Qayta o‘ralish qobiliyati, uzilishlar soni	10	9	8	9	9
Uzish kuchi, <i>sN</i>	97	103	100	100	100
Nisbiy uzuvchi kuch, <i>sN/tex</i>	30	32	31	31	31
Nisbiy uzilishdagi cho‘zilish (%)	18	18	19	19	19
Jipsligi, karetkani yurish soni	60	62	63	62	62

9-jadvaldan ko‘rishimiz mumkinki, nazorat variantida mavsumda yetishtirilgan mahalliy “Ipakchi-1xIpakchi-2” va “Xitoy” duragaylari pillalaridan olingan xom ipakning sifat ko‘rsatkichlari O‘zDSt 3313:2018 davlat standarti talablari bo‘yicha birinchi darajali xom ipak sifat ko‘rsatkichlaridan chiziqli zichligi bo‘yicha og‘ishi, solishtirma uzilish kuchi, ipning uzilishdagi cho‘zilishi, iplarning jipsligi kabi ko‘rsatkichlari tajriba variantida olingan xom ipak sifat ko‘rsatkichlaridan ancha past bo‘lmoqda va “2A” sinf talablariga mos keldi. Tajriba variantida olingan xom ipakning sifat ko‘rsatkichlari esa O‘zDSt 3313:2018 davlat standarti talablari bo‘yicha “3A” sinf talablariga to‘la mos kelmoqdi.

Iqtisodiy samaradorlik asosan zamonaviy texnologiyani qo‘llash asosida texnologik jarayonni takomillashtirilganligi hamda emulsiya narxini pasaytirish orqali erishilgan. Shuningdek, takroriy yetishtirilgan pillalardan yuqori sifatli xom ipak ishlab chiqarib, uni standart charxlarga qayta o‘rash jarayonida emulsiya tarkibini mahalliyashtirish orqali harajatlarni kamaytirish natijasida xom ipak chiqish miqdori ham oshganligi hisobiga 1 yilga 13,34 tonna xom ipak iplarni ishlab chiqarish uchun 878.691.000 so‘m iqtisodiy samaradorlikka erishiladi. (2025-yil narxlari).

XULOSA

1. Pilla yetishtirish, xom ipak chuvish jarayoni, ishlab chiqarilayotgan ipak sifatiga ta'sir etuvchi omillarni tadqiq qilgan olimlarning va shu sohada ilmiy ishlar bajargan xorijiy olimlarning tadqiqot ishlari hamda internet ma'lumotlari tahlil qilindi.
2. O'tkazilgan adabiyotlar tahlili asosida, hozirda takroriy mavsumlarda yetishtirilayotgan pillalardan sifatli xom ipak olishda standart kalavaga ishlatiladigan emulsiyalarni mahalliyashtirish zarurligi aniqlandi.
3. Takroriy mavsumda mahalliy sharoitda yetishtirilgan "Ipakchi-1x Ipakchi-2" va "Xitoy" duragaylari pillalarini fizik mexanik xususiyatlari tadqiq etildi.
4. Olib borilgan tadqiqotlar tahlili asosida mahalliy sharoitda etishtirilgan "Ipakchi-1x Ipakchi-2" va "Xitoy" duragayi pillalaridan yuqori sifatli "3A" va "2A" sinflariga mos xom ipak olish uchun FY-2008 avtomatik pilla chuvish dastgohiga optimal chuvish tezligi nazariy hisoblandi va ilmiy asoslangan holda amaliyotga tavsiya etildi.
5. Yangi yaratilgan rejimlar asosida ishlab chiqarilgan xom ipakning sifat ko'rsatkichlari amaldagi O'zDSt 3313-2018 standarti talablari asosida baholandi va yuqori sifatli "3A" va "2A" sinflariga mos xom ipak ishlab chiqarilganligi amaliy hisobotlandi.
6. Xom ipakni standart charxga qayta o'rashda emulsiya konsentratsiyasining ip mustahkamligiga ta'sir qiluvchi omillar nazariy tomondan tadqiq qilinib, texnologik jarayonning turli emulsiya konsentratsiyasining o'zgarishi, harorat va bosimni ta'siri hamda qayta o'ralishdagi olib borilgan tajribalar natijasida emulsiya retseptini mahalliy xomashyolardan tayyorlash, konsentratsiyani va ishlov berish vaqtini ratsional qiymatlari aniqlandi hamda tajribalar orqali aniqlangan amaliy qiymatlar nazariy hisoblarga mos kelishi, bir biriga yaqin ekanligi asoslandi.
7. Qayta o'rash jarayonida ishlatiladigan emulsiya tarkibini tayyorlash uchun texnologik parametrlar ishlab chiqildi va xom ipak sifati oshirildi hamda ishlab chiqarilgan emulsiyani mahalliyashtirishga erishildi.
8. Sirdaryo viloyatida yetishtirilgan takroriy mavsum pillalaridan 3A sinfiga mos xom ipak chuvib olingandan so'ng, standart charxga qayta o'rash jarayonida ishlatiladigan emulsiyani retsepti ishlab chiqarishga joriy etilib, emulsiya konsentratsiyasini xom ipak sifatiga ta'siri o'rganildi.
9. Takroriy yetishtirilgan pillalardan yuqori sifatli xom ipak ishlab chiqarib, uni standart charxlarga qayta o'rash jarayonida emulsiya tarkibini mahalliyashtirish va xom ipak sifatini 2A dan 3A sinfiga yaxshilash va uzilishar soni hamda xarajatlarni kamaytirish hisobiga 1 yilga 13,34 tonna xom ipak iplarni ishlab chiqarish uchun 878.691.000 so'm iqtisodiy samaradorlikka erishildi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.03/2025.27.12.Т.21.01 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ ТАШКЕНТСКОМ ИНСТИТУТЕ
ТЕКСТИЛЬНОЙ И ЛЕГКОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ**

**ТАШКЕНТСКИЙ ИНСТИТУТ ТЕКСТИЛЬНОЙ И ЛЕГКОЙ
ПРОМЫШЛЕННОСТИ**

УМАРОВА ГОВХАР АБДУРАХИМОВНА

**СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ТЕХНОЛОГИИ ВЫРАБОТКИ ШЕЛКА-
СЫРЦА ИЗ ПОВТОРНО-ВЫРАЩЕННЫХ КОКОНОВ В СЕЗОНЕ**

**05.06.02 – Технология текстильных материалов и первичная
обработка сырья**

АВТОРЕФЕРАТ
диссертации доктора философии (PhD) по техническим наукам

Ташкент – 2026

Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за В2025.3.PhD/T5981

Диссертация выполнена в Ташкентском институте текстильной и легкой промышленности.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-странице Научного совета (www.titli.uz) и на Информационно-образовательном портале «Ziyonet» (www.ziyonet.uz).

Научный руководитель: **Умурзакова Халима Хабибуллаевна**
доктор философии по техническим наукам, доцент

Официальные оппоненты: **Кадирова Дилфуза Нематовна**
доктор технических наук, профессор

Кабулова Нилуфар Жалиловна
кандидат технических наук, доцент

Ведущая организация: **Научный исследовательский институт шелководства**

Защита диссертации состоится «13» марта 2026 года в 14⁰⁰ часов на заседании Научного совета DSc.03/30.12.2019.T.08.01 при Ташкентском институте текстильной и легкой промышленности (Адрес: 100100, г. Ташкент, ул.Шохжахон-5 в административном здании Ташкентского института текстильной и легкой промышленности, 2-222 аудитория, тел.: (+99871) 253-06-06, (+99871) 253-08-08, факс: (+99871) 253-36-17; e-mail: titlp_info@edu.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Ташкентского института текстильной и легкой промышленности (зарегистрирована за №279). Адрес:100100, г.Ташкент, ул. Шохжахон, 5, тел.: (+99871) 253-06-06, (+99871) 253-08-08.

Автореферат диссертации разослан 24 февраля 2026 года (реестр протокола рассылки № 279 от 24 февраля 2026 года).




Х.Х.Камилова
Председатель Научного совета по присуждению ученых степеней, д.т.н., профессор


А.З.Маматов
Ученый секретарь Научного совета по присуждению ученых степеней, д.т.н., профессор


Ш.Ш.Хакимов
Председатель Научного семинара при научном совете по присуждению ученых степеней, д.т.н., профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В мире многие страны занимаются выращиванием живых коконов, используя энергосберегающие технологии и техники. Среди стран, лидирующих по выращиванию тутового шелкопряда и получению коконов, лидируют Китай, Индия, Бразилия, Узбекистан, Япония, Республика Корея, Таиланд и Вьетнам¹. В странах, занимающихся производством шелка, необходимо выявлять особенности коконов, выращенных в повторные сезоны, определять факторы, влияющие на производство качественного шелка-сырца, и внедрять ресурсосберегающие техники и технологии, обеспечивающие высокую эффективность производства готовой продукции из полученного шелка-сырца. В связи с этим большое значение имеет эффективное использование сырья, сохранение свойств шелка-сырца и подготовка эмульсии из местного сырья, используемой в процессе перемотки шелка-сырца, расширение ассортимента высококачественного шелка.

В мире ведутся исследования, направленные на достижение высокой эффективности производства шелка сырца и шелковых изделий путем обработки коконов, а также на разработку новых научно-технических решений с использованием современных технологий. В этом направлении проводятся исследования по совершенствованию технологии извлечения высококачественного шелка сырца из коконов, выращенных в повторном сезоне. В связи с этим важно установить технологические параметры для повторно выращиваемых коконов в нашей стране.

В нашей республике реализуются комплексные меры по совершенствованию процессов подготовки коконов к размотке и размотка коконов тутового шелкопряда, выращенных в повторный сезон, и разработки ресурсосберегающих техники и технологий, позволяющих получить из них высококачественный шелк-сырец, и достигаются определенные результаты. В Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы поставлены важные задачи, как «...увеличить к 2026 году объемы производства промышленной продукции за счет восполнения существующих пробелов в производстве готовых шелковых тканей из шелковой продукции, а также импортозамещающей продукции...». В реализации этих задач, в частности, важное значение имеет совершенствование технологии перемотки с малых мотовил размотанного шелка-сырца из коконов тутового шелкопряда, выращенных в повторный сезон и внедрение ее в производство.

Данная диссертационная работа в определенной степени служит выполнению задач, предусмотренных в Постановлениях Президента Республики Узбекистан от 31 июля 2019 года №ПП-4411 «О дополнительных мерах по развитию глубокой переработки в шелковой отрасли», от 17 января 2020 года №ПП-4567 «О дополнительных мерах по развитию кормовой базы тутового шелкопряда в шелководческой отрасли», от 24 февраля 2023 года №ПП-73 «О

¹ <https://inserco.org/en/statistics>

